

**INFLYATSIYANI TARGETLASH VA UNING IQTISODIYOTGA TA'SIRI****Axmedov Eldor Erkin o'g'li**

Toshkent shahridagi Yeosu texnika instituti

„Moliya” yo'nalishi 2-kurs FIN-33U guruh talabasi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada iqtisodiyotdagi eng muhim tushunchalardan biri bo'lgan inflyatsiya haqida to'xtalib o'tamiz. Biz bu maqolada aynan inflyatsiya nimaligi, uning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati haqida emas. Uni qanchadir muddatda bir meyorda ushlab turish yo'llaridan biri bo'lgan inflyatsiyani targetlash haqida to'xtalamiz. O'zi inflyatsiyani targetlash iqtisodiyotga nima beradi-yu va iqtisodiyot nimani yo'qotadi degan savollarga ushbu maqolamiz orqali javob berishga harakat qilamiz.

**Kalit so'zlar:** inflyatsiyani targetlash, Markaziy bank, Yangi Zelandiya, narx, foiz stavkasi, Buyuk Britaniya, fiskal siyosati.

**Kirish:**

Hozirgi kunda iqtisodiyotning pasayishi, bu orqali aholining ijtimoiy ahvoli pasayishiga turli xil urushlar, sanksiyalar va yana shunga o'xshash sabablar bilan bir qatorda inflyatsiya ham jiddiy ta'sir o'tkazmoqda. Aslida past darajadagi inflyatsiya bo'lgani iqtisodiyot uchun judayam foydalidir. Ammo oxirgi paytlar inflyatsiyani jilovlash murakkab ishga aylanib bormoqda. Shu sababli olimlar inflyatsiyani bir me'yorda ushlab turish uchun turli xil metodlarni kashf qilishga harakat qilishmoqda yoki bor metodlar ustida ish olib borishmoqda. Ana shunday metodlardan biri bu inflyatsiyani targetlashdir. Bu atama 1970-yillarda Germaniya va Yangi Zelandiyada qo'llana boshlagan. Ammo rasman 1990 yil amalda qo'llangan va buni birinchi bo'lib Yangi Zelandiya amalga oshirgan, keyinchalik Kanada va Buyuk Britaniya ham bu metodni o'z iqtisodiyotida qo'llaydi. Inflyatsiyani targetlashda qaysidir muddatgacha inflyatsiyani tushirish yoki amaldagi inflyatsiyani qaysidir muddatgacha ushlab turish uchun prognozlar ko'zda tutiladi. Aynan manashu usul hozirda ko'plab davlatlardan tomonidan o'rganilib iqtisodiyotga joriy e'tilmoqda. Hozirda inflyatsiyani targetlashdan 27 davlat foydalanmoqda. Bu usul turli xil iqtisodiy ekspertlar va olimlar tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti uchun judayam foydali deb e'tirof etiladi. Lekin bu usuldan hozirgi kunda ko'plab rivojlangan mamlakatlar ham foydalanadilar. Bunga misol qilib Amerika Qo'shma Shtatlari, Yaponiya, Kanada, Shvetsariyani olishimiz mumkin. Shu sababli O'zbekistonda ham inflyatsiyani targetlash bo'yicha hukumat topshirig'i berildi va berilgan takliflar asosida 2024-yilga borib inflyatsiyani 5 foiz miqdoriga tushirish va undan keyingi yillarda uni shu ko'rsatkichda ushlab turish Markaziy bankka ustuvor vazifalaridan biri etib belgilandi. Inflyatsiyani targetlash o'zi iqtisodiyotga nima beradi va u nima uchun

rivojlanayotgan davlatlar uchun foydaliroq deb e'tirof etiladi. Umuman olganda bunga bir muncha sabablar bor. Ko'plab iqtisodchilar asosiy sabablardan biri narxlarni bir me'yorda ushlab turishiga katta yordam berishidir deb takidlashadi. Biz bilamizki rivojlanmagan, rivojlanayotgan yoki ba'zida rivojlangan mamlakatlarda ham narxlarning keskin oshishi va buning natijasida aholining xarajatlarining oshishi asosiy muammolardan hisoblanadi. Narxlarning sekin o'sishi esa nafaqat aholining ijtimoiy ahvolini yaxshilaydi balki buning ortidan iqtisodiyot ham tez o'sishi mumkin. Inflyatsiyani targetlash odamlarda shunday taassurot uyg'otadiki go'yoki hozir narxlar arzon tez va ko'p sotib olishimiz kerak belgilangan muddat o'tgach narxlar qimmatlashadi deb o'ylab tez va ko'p mahsulot yoki xizmatlarni xarid qilishadi. Buning ortidan esa talab haddan tashqari ko'payadi va iqtisodiyot tez rivojlanadi. Balki shu sababli mamlakatimiz inflyatsiyani targetlashga o'tgandir bu katta sabab lekin yetarli bo'lmasligi mumkin, inflyatsiyani targetlash nafaqat narxlarni bir me'yorda saqlab turadi balki investorlar uchun haqiqiy imkoniyatlardan biri sifatida ko'riladi. Chunki tasavvur qiling makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tez-tez o'zgarib turadigan davlatlarga investorlar investitsiya kiritishni ko'pam xo'sh ko'rmaydi, investorlar makroiqtisodiy ko'rsatkichlari ko'pam o'zgarmaydigan va barqaror bo'lgan davlatlarga investitsiya kiritishadi. Inflyatsiyani targetlash orqali esa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni bir me'yorga tushirish mumkin va buning ortidan investorlar investitsiya kiritishadi va iqtisodiyot tez rivojlanadi, ishlab chiqarish ko'payadi, ishsizlik qisqaradi, aholi daromadlari oshadi va bu o'z-o'zidan yalpi ichki mahsulot oshishiga olib keladi. Shu sababli hozirda ko'plab rivojlanayotgan davlatlar inflyatsiyani targetlashga o'tishmoqda.

### **Adabiyotlar sharhi:**


Inflyatsiyani targetlash uning iqtisodiyotga ta'siri haqida shu paytgacha ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan. Bu atamaga yaqin ma'noni bildiruvchi metodlar 20-asrning boshidan boshlab qo'llanila boshlangan. Valyuta kursiga emas, balki narx darajasiga yoki inflyatsiya darajasiga qaratilgan pul tizimlarining dastlabki takliflari Birinchi jahon urushidan keyin oltin standartining umumiy inqirozidan keyin paydo bo'ldi. Irving Fisher qog'oz pullarda oltin miqdori bo'lgan "kompensatsiyalangan dollar" tizimini taklif qildi. oltinga nisbatan tovarlar narxiga qarab o'zgaradi, shuning uchun qog'oz pullar bo'yicha narx darajasi barqaror bo'lib qoladi. Fisherning taklifi oltin standartining avtomatik ishlashini saqlab qolgan holda narxlarni targetlashga qaratilgan birinchi urinish edi. John Maynard Keynes o'zining "Tract on Monetary Reform" asarida hozirda biz inflyatsiyani targetlash deb ataydigan atamani yoqladi. Birinchi jahon urushidan so'ng xalqaro iqtisodiyotdagi to'satdan inflyatsiya va deflyatsiya sharoitida Keyns valyuta kursining moslashuvchanligi siyosatini tavsiya qiladi. Jahon bankidan Norman Loayza va Chili Markaziy bankidan Raimunda Soto inflyatsiyani targetlashga o'tgan davlatlar ustida tadqiqot o'tkazdi va bu metodning iqtisodiyot uchun foydali yoki zarari haqida o'z xulosasini berdi. Ular Chili, Braziliya, Yangi Zelandiya va

<https://conferencea.org>

boshqa bir nechta davlatlarda inflyatsiyani targetlaganda qanday natijalarga erishilgani haqida tadqiqot olib bordi va shunday xulosaga kelishdi. Ularning fikriga ko'ra faqatgina inflyatsiyani targetlash bilan ko'zlangan natijaga erishib bo'lmasligini ta'kidlashdi. Agar inflyatsiyani targetlash bilan birgalikda mamlakatdagi pul-kredit va soliq siyosati ham yaxshi ishlasa inflyatsiyani targetlash mamlakat uchun katta muvaffaqiyat olib kelishi mumkin degan xulosaga kelishdi.

### **Tadqiqot metodologiyasi:**

Ushbu maqolada kuzatuv metodidan foydalanildi. Ya'ni olimlarning tadqiqotlarni o'rganish, inflyatsiyani targetlash rejimiga o'tgan davlatlar va inflyatsiyani targetlashning iqtisodiyotga ta'siri haqida turli xil o'rganish va kuzatuvlar natijasida ushbu maqola yozildi. Inflyatsiyani targetlash haqidagi ko'plab tadqiqotlarda uning iqtisodiyot uchun ta'siri keltirilgan va hozir bir necha davlatlar misolida inflyatsiyani targetlashga o'tgandan keyin makroiqtisodiy ko'rstakichlar qanday o'zgargani va umumiy mamlakat iqtisodiyotning qaysi qismiga foyda va aksincha qaysi qismiga zarar keltirganini ko'rib o'tamiz. Tadqiqotlarga ko'ra inflyatsiyani targetlashning o'ziga xos foyda va zarar tomonlari bor, foydali jihatlarini yuqorida sanab o'tdik endi ba'zi zararli tomoniga qaraydigan bo'lsak inflyatsiyani targetlashdagi eng katta muammolar bular; ishsizlik va inflyatsiya tashqi ta'sir masalan; turli xil urushlari nizolar sanksiyalar yoki boshqa sabablar tufayli inflyatsiya tezda o'zgarib ketishi mumkin va buni to'g'irlash uchun Markaziy bankka juda katta bosim tushishi mumkin. Ko'plab rivojlangan mamlakatlar ko'pincha inflyatsiyani 2% atrofida targetlashga harakat qilishadi. Buyuk Britaniya ham 2000-yillardan beri inflyatsiyani 2% miqdorida targetlab kelmoqda. Umuman olganda inflyatsiyani targetlashning foydali yoki zararli jihatlarini Buyuk Britaniya, Amerika Qo'shma Shtatlari va Yevropa ittifoqi miqyosida qisman ko'rib o'tamiz. 2009-yildagi turg'unlikdan oldin, Buyuk Britaniyada neft narxining yuqoriligi tufayli 5% inflyatsiyani boshdan kechirdi. 2% inflyatsiyani targetlash uchun yuqori foiz stavkalari talab qilinadi, bu esa o'z-o'zidan iqtisodiy o'sishning pasayishiga olib kelardi. Shu sababli Buyuk Britaniya va AQSh ma'lum darajada inflyatsiya ko'rsatkichidan vaqtinchalik voz kechishga tayyor edilar. Shu sababli Angliya Banki 2009-2012 yillar davomida inflyatsiyani belgilangan me'yordan yuqori bo'lishiga ruxsat berdi, chunki Markaziy bank inflyatsiyani qisman jilovlasa bo'lishi mumkinligi ammo tanazzul bo'ladigan bo'lsa bu jiddiy muammo bo'lishini ta'kidladi.



**Markaziy banklar ko'proq dolzarb muammolarni e'tiborsiz qoldira boshlaydi .** Yevropa Markaziy Banki Yevrozonadagi inflyatsiyani maqsadli darajada ushlab turish uchun pul-kredit siyosatini belgiladi. Shunga qaramay, inflyatsiyani targetlash orqali ular ishsizlikning o'sib borishi xarajatlarini kamaytirayotganga o'xshardi. 2011/12-yilda Yevropa Markaziy Banki Yevrozonadagi turg'unlikka befarq qaradi va uzoq muddatli pasayishning oldini olishga harakat qilish o'rniga, ular past inflyatsiyaning muhimligiga e'tibor qaratdilar. Maqsaddan yuqori inflyatsiya iqtisodiyotga noaniqlik, raqobatbardoshlikni yo'qotish va xarajatlarni keltirib chiqarishi mumkin, ammo bu xarajatlar ommaviy ishsizlikning ijtimoiy va iqtisodiy xarajatlaridan ancha kamroq ahamiyatga ega. Ispaniyada ishsizlik 25% ga yetdi, lekin Yevrozonada pul-kredit rag'bati kam edi, chunki Yevropa Markaziy Banki 2,6% inflyatsiyadan xavotirda edi.

**Xulosa:** Biz ushbu maqolamizga yuqoridagi tadqiqot va ma'lumotlar asosida xulosa qilarkanmiz, Umuman olganda inflyatsiyani targetlash iqtisodiyot uchun ko'plab foyda olib

kelish bilan birga ba'zi salbiy tomonlarni ham o'z ichiga oladi. Har bir mamlakat esa ushbu inflyatsiyani targetlashning salbiy tomonlari ta'sirini iloji boricha kamaytirishga harakat qilishi va inflyatsiyani targetlash bilan birga pul-kredit, fiskal siyosatini to'g'ri olib borish ortidan yuqori iqtisodiy o'sishga erishishi mumkin. Inflyatsiyani targetlash bilan yuqori iqtisodiy o'sishga erishmoqchi bo'lgan har bir davlat inflyatsiyani targetlash siyosatini shunchaki qaysidir davlatnikidan ko'chirib qo'ymasdan, har bir davlat o'zining iqtisodiy, ijtimoiy ahvolidan kelib chiqqan holda inflyatsiyani targetlash siyosatini qo'llashi va u bilan chambarchas bog'liq boshqa pul-kredit, fiskal siyosatlarini ishlab chiqishi kerak. Shundagina ko'zlangan iqtisodiy, ijtimoiy o'sishga erishish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Coy, Peter (7 November 2005). "What's The Fuss Over Inflation Targeting?".
2. Jahan, Sarwat. "Inflation Targeting: Holding the Line". International Monetary Funds, Finance & Development.
3. Andrew G. Haldane (1995). Targeting Inflation: A Conference of Central Banks on the use of inflation targets Organised by The Bank of England, 9-10 March 1995.
4. Noyer, Christian (12 January 2016). "Thoughts on the zero lower bound in relation with monetary and financial stability".
5. Galbács, Peter (2015). "The Rational Expectations Hypothesis as a Key Element of New Classical Macroeconomics". *The Theory of New Classical Macroeconomics*
6. Amira, Beldi; Mouldi, Djelassi; Feridun, Mete (2012). "Growth effects of inflation targeting revisited: empirical evidence from emerging markets"
7. Haizhou Huang; Shang-Jin Wei (September 2006). "Monetary Policies for Developing Countries: The Role of Institutional Quality". *Journal of International Economics*. 70: 239–52.
8. <https://en.m.wikipedia.org>
9. <https://www.researchgate.net>
10. <https://www.economicshelp.org/blog/5397/inflation/inflation-targetting-pros-and-cons/>